

## **FRAZEOLOGIZMLARNI O'RGANISHDA KOGNITIV LINGVISTIKANING AHAMIYATI**

G.M.Umarjonova

FarDU, Chet tillar kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda tilga dunyo haqidagi ma'lumotlarni aks ettirish va o'zgartirishda ishtirok etuvchi kognitiv tilshunoslik jadal rivojlanmoqda. Mazkur maqola frazeologik birliklarni kognitiv tahlil qilinishi haqida bo'lib, uning ob'ekt nominasiyasini ochib berishda, turli munosabat bildirishi hamda frazeologik birliklar ma'nosining shakllanishida kognitiv tilshunoslik ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

**Annotation:** Today, cognitive science, which is involved in reflecting and transforming information about the world into language, is rapidly developing. This article is about the cognitive analysis of phraseological units, information is provided about the importance of cognitive science in revealing the object nomination, expressing different attitudes and forming the meaning of phraseological units.

**Аннотация:** Сегодня бурно развивается когнитивистика, которая занимается отражением и преобразованием информации об окружающем мире в язык. В данной статье речь идет о когнитивном анализе фразеологизмов, приводятся сведения о значении когнитивистики в выявлении номинации объекта, выражении различных отношений и формировании значения фразеологизмов.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tishunoslik, frazeologik birlik, kognitiv mexanizm, semantik soha, psixologik, biologik, neyrofiziologik, ijtimoiy, madaniy, lisoniy.

**Key words:** cognitive tissue science, phraseological unit, cognitive mechanism, semantic field, psychological, biological, neurophysiological, social, cultural, linguistic.

**Ключевые слова:** наука о когнитивной ткани, фразеологизм, когнитивный механизм, семантическое поле, психологическое, биологическое, нейрофизиологическое, социальное, культурное, лингвистическое.

Zamonaviy tilshunoslikning tilning ko‘rib chiqilayotgan tuzilmalaridagi milliy xususiyatlarni aniqlash va unga bo‘lgan umumiy qiziqishlar ortib bormoqda. Somatik frazeologik birliklarning nafaqat tilning semantik, milliy va madaniy xususiyatlarini ochib berish, balki dunyoning frazeologik manzarasini o‘rganish uchun ham ahamiyatli bo‘lib, bu zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kognitiv yondashuv lug‘atni tizimlashtirish masalasini yangicha ko‘rib chiqishga imkon beradi, bu esa o‘z navbatida nafaqat so‘z ma‘nolari va ilmiy tushunchalarni, balki muayyan madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiruvchi lug‘atlar ishlab chiqishga olib keladi.

Bugungi kunda tilga dunyo haqidagi ma‘lumotlarni aks ettirish va o‘zgartirishda ishtirok etuvchi kognitiv mexanizm sifatida qaraydigan kognitiv tilshunoslik jadal rivojlanmoqda va o‘rganilayotgan muammolarning keng doirasi, turli yondashuvlar va maktablar bilan ajralib turadi. Kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlar til nazariyasiga eng ta‘sirli yondashuvlardan biridir. O‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zining ilk qadamlarini qo‘ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalariidan biriga aylanib ulgurdi. Kognitiv tilshunoslik tilni aqliy bilim va qayta ishlash tizimi sifatida uning barcha interfeyslari va o‘zaro ta‘sirida fanlararo asosda tadqiq qilishni va buni psixologik jihatdan adekvat, ya‘ni tushuntirishni xohlaydi.

Frazeologik birliklarni (FB) kognitiv tahlil qilish nafaqat u yoki bu hodisa, ob‘ekt nominasiyasini ochib beradi, balki munosabat bildiradi, frazeologik birlik ma‘nosining shakllanishi haqida ma‘lumot beradi. Kognitiv yondashuv dunyo va uning milliy qarashlarini katta bilim bloklari periferiyasiga kiritish mumkin bo‘lgan alohida bloklar sifatida taqdim etishga imkon beradi. Demak, alohida frazeologik-semantik sohalarni tahlil qilish va ular doirasidagi modellarni tanlash ham har bir frazeologik birlikda milliy xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik, kognitologiya boshqa sohalardan farqli holda, inson tomonidan til tizimini harakatga keltiruvchi omillarni o‘zlashtirilishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo‘sinda tartibga solish masalalasi bilan ham

Shug‘ullanadi. Kognitiv tishunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o‘rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. Kognitivist lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarini, ularni yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo‘lgan muloqot matnlari — lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik asosan inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog‘liqligida tadqiq etuvchi, «tushuntiruvchi» fan sohasidir. Bunday tadqiq ikki yo‘nalishda bajariladi: a) nutqiy faoliyat ijrosi va uning mahsulining paydo bo‘lishi; b) ushbu faoliyat mahsulotlarining idrok etilishi.

Kognitiv tilshunoslik (nemischa *cognize* – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. N.N.Boldirev kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liq deb ta‘kidlaydi [1;123]. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. U bevosita til bilan bog‘liq holda kechadi, zero, til vositasida tajriba va bilim almashiniladi, axborot uzatiladi, bilish jarayoni, uning natijalarining aynan Shu jihati bilimning lisoniy tizimini, ya’ni uni tartiblashtirish, xotirada saqlashning lisoniy vositalarini o‘rganuvchi tilshunoslik fani bilan aloqadordir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, kognitiv tilshunoslik nisbatan yosh fan bo‘lishiga qaramay, uning g‘oyalari ko‘plab taniqli rus va xorijiy tilshunoslik klassiklarining asarlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan V.Gumboldt va uning mashhur “Til – xalq ruhi” [2; 398] hikmati, A.Potebnya va uning bevosita va keyingi ma‘no tushunchasi [3; 395], I.A. de Kurtene va uning tilshunoslik va boshqa fanlar (psixologiya, antropologiya, sosiologiya, biologiya) haqidagi bashoratini [4; 384] keltirish kifoya, tilni inson ongining ajralmas qismi deb hisoblagan L.Elmslev [5; 248], E.Sepir va B.Vorf nisbiylik, til va tafakkur, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar muammosiga ta‘sir ko‘rsatadigan tilshunoslik nazariyasi bilan birlashtiriladi [6; 135],

I.I.Meshchaninov va uning konseptual kategoriyalar haqidagi ta‘limoti [7;], R.YAkobson va uning tilning ramziy tabiati va tilshunoslik boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqidagi tushunchasi [8] bunga misol bo‘la oladi.

**Adabiyotlar:**

1. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика / Н.Н. Болдырев. - Тамбов, Изд- во ТГУ, 2002. -123 с.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 2000. 398с.
3. Потебня А. А. Мысль и язык. М.: Директ-Медиа, 2012. 395 с.
4. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. М.: КомКнига, 2006. 248 с.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. М.: Прогресс, 1993.; Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. М.: Изд-во иностр. литературы, 1960. №1. С. 135-168.
6. Мещанинов И.И. Понятийные категории в языке. М., 1945. №1.
7. Якобсон Р.О. Работы по поэтике. М.: Прогресс, 1987.